

AXBOROT XATI

SCIENTIFIC DIGEST: THEORY & APPLICATIONS (SDTA)

Toshkentdagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti



Turizm sanoati (shuningdek, sayohat industriyasi deb ham yuritiladi) mahalliy yoki xalqaro manzillarga dam olish, ijtimoiy yoki biznes maqsadlarida sayohat qilish bilan bog'liq tushuncha. Bu mehmonxona, mehmondo'stlik xizmatlari va transport sanoati bilan chambarchas bog'liqdir. Turizm sanoati (Turizm ta'minotlar zanjiri) boshqa ko'plab tarmoqlarni, jumladan xunarmandchilik, salqin ichimlik va restoran xizmatlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va joylardagi turizm infratuzilmalarni ham o'z ichiga oladi. Turizm sanoatida barcha qo'shilgan qiymatlar daromadga qaratilgan bo'lib, sayyohlarni mamnun qilish, va ularning sayohat davridagi ehtiyojlarini qondirishga asoslangan. Turizm sanoati murakkab bo'lib fanlararo tadqiqotlarni talab etadi. Toshkentdagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti turizm ta'minotlar zanjirini mustahkamlash maqsadida sanoatning global muammolarini o'rganadi. TSMRI ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va konsalting markazi ayni paytda o'zaro tajriba almashish maqsadida nashr etilmagan yangi ilmiy tadqiqot natijalarni to'plab, tahlil qilib nashr etishga kirishdi.

Ushbu to'planning asosiy maqsadlari:

- Turizm sanoatidagi yangi biznes modellarga e'tiborni jalb qilish;
- Turizm sanoati bilan bog'liq masalalarni yoritib berish;
- Turizm sanoati rivojlanishini va global muammolarini o'rganish;
- Turizm sanoatidagi tadqiqotlarni va ta'lim yonalishlarini rivojlantirish;
- Turizm sanoatini rivojlantirishdagi yangi yondashuv va mexanizmlarni qo'llab-quvvatlash.

Asosiy tematik yo‘nalishlar:

- Turizm Marketingi; Turizmdagi tendentsiyalar
- Turizm Menejmenti
- Turizm sanoatida daromad menejmenti
- Turizm sanoatidagi zamonaviy texnologiyalar tendentsiyalari
- Turizm sanoatida barqaror rivojlanish
- Turizm va iqtisodiy rivojlanish
- Turizm sanoatida ilmiy tadqiqotlar va ta‘lim yonalishlari
- Turizmda platformalar, mobil ilovalar va ma‘lumotlar bazasi
- Turizm ta‘minotlar zanjiri
- Turizmdagi transport tizimlari
- Oziq-ovqat va salqin ichimliklar xizmatlari
- Turizm sanoatidagi ko‘ngilochar xizmatlar
- Media: Video turizm sanoati
- Bog‘liq sohalar (boshqa aloqador tarmoqlar)

SDTA uchun taqdim etilgan maqolalar SDTA to‘plami ko‘rinishida ISBN raqami bilan nashr etililadi.

Tillar: ingliz, o‘zbek va rus

Originalligi kamida 80% bo‘lishi talab etiladi

Shrift: hajmi – 14, turi – Times New Roman; satr maydoni - 1,5. Barcha chetlari 2 sm.

Taqdim etish formati:

- sarlavha
- annotatsiya (500-600 so'z)
- kalit so‘zlar (3-5)
- asosiy matn (kirish, asosiy qism and xulosa)
- adabiyotlar

Agar siz ishlaringizni o‘zbek va rus tillarida taqdim etayotgan bo‘lsangiz, sarlavha va kalit so‘zlarni ingliz tilidagi tarjimasini ham keltring.

Maqolalaringizni **2023 yilning 31 avgustiga** qadar to‘liq mualliflar ism-sharifi, telefon raqami va elektron pochta manzili ko‘rsatgan holda research@mdis.uz elektron manziliga yuboring.